

SIYOSAT TILI HAQIDA

Sabirov Asror Abdullayevich

Ma'mun nomidagi jahon tillari NTM Roman – german Filologiyasi kafedrasini nemis tili fani o'qituvchisi, 10.00.06- "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik, tarjimashunoslik" ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: Siyosat, siyosat tili, siyosiy til, murojaat tili, kapitalizm, konstitutsiyalarning huquqiy tili, byurokratik til, muzokaralar tili.

Annotatsiya

Ushbu maqolada siyosat tili hamda siyosiy til tushunchalari tarixiy nuqtai-nazardan tadqiq qilingan. Siyosiy tilga berilgan olimlarning ta'riflari tahlilga tortilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Hozirgi kunda, buyuk qadriyatlarimizning mazmunini o'zida ifodalovchi milliy tilimizning boy imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda. Bu borada mamlakatimizda e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani e'tiborlidir.

Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan bo'ladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida o'zbek tilining o'rni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga g'urur-iftixor bag'ishlaydi. Shu borada o'zbek tilining kompyuter va internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot kabi maxsus termin va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo'llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog'liq katta ekanini ko'rsatadi.

Siyosat va uning institutlari jamiyatdagi til imkoniyatlarisiz o'z maqsadlarini amalga oshirolmaydi. Ayni vaqtda, tilning o'zi ham siyosatning u yoki bu tarzidagi ta'siriga uchraydi. Ma'lumki, til davlat tomonidan alohida siyosat va rejalashtirish ob'ektiga aylanib boradi.

“Siyosat tili” haqida gapirishdan oldin, “siyosat” atamasiga ta'rif berish kerak. Siyosatshunos Lübbe 1975 yilda quyidagi ta'rifni bergan: “Siyosat - bu ommaviy axborot vositalarida jamoatchilik roziligini yaratish san'ati”¹. Bu turli xil aralash nisbatlarda ma'lumot beruvchi va ishontiruvchi til uslubiga urg'u beradi. Umuman olganda, bu ta'rif davlat parlamentlari, Milliy kengash va Yevropa parlamenti kabi yuqori darajadagi siyosatchilarning lingvistik harakatlarini yaxshi qamrab oladi.

Grünert esa buni quyidagicha ta'riflaydi: Siyosat “jamiyat va turli jamoalar o'rtasidagi insoniy munosabatlarni tartibga soluvchi tashkilot”. Bu ta'rif siyosatchilar va fuqarolar o'rtasidagi aloqa sohasini davlat va milliy institutlar o'rtasidagi ichki aloqani o'z ichiga olgan holda kengaytiradi.

Diekmann: “siyosat - bu shaxslar, guruhlar, tashkilotlar, partiyalar, sinflar, parlamentlar va

¹ DIEKMANN, Walter, „Deutsch: politisch – politische Sprache im Gefüge des Deutschen“ S. 12

hukumatlarning muayyan maqsadlarni amalga oshirishga, ayniqsa davlat sektorida va jamiyat hayotini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlari” deb qo’shimcha qiladi.² Chunki davlat tomonidan yo’naltirilgan xatti-harakatni ham o’z ichiga oladi, bu uchta ta’rifning eng kengi hisoblanadi.

Siyosat tili yoki siyosiy tilning o’ziga xosligi shundan iboratki, u siyosatni amalga oshirish, siyosiy maqsadlarga erishish vositasi sanaladi. Shu jihati bilan u yuridik, ilmiy, falsafiy tibbiyot va boshqa har qanday funksional tildan farq qiladi. Biroq siyosat tili tilning barcha qolgan qismlari, umumiy til lug’at tarkibi bilan chambarchas bog’liqdir.

Ayni vaqtda, siyosat tili tibbiyot, texnika yoki yuristprudensiya tilidek aniq ajralib turmaydi. Shu asnoda siyosat tili va umumiy til lug’at tarkibi o’rtasida doimiy va o’zaro almashinuv boradi. Bunda nafaqat siyosiy atamalar, so’zlar va iboralar umumiy til lug’at tarkibi boyligiga aylanadi, balki aksincha, umumiy til lug’at tarkibidagi ko’p so’zlar va iboralar siyosat tili tarkibiga o’tadi. Shu tariqa, siyosiy atamalar u yoki bu darajada o’zining terminologik xususiyatini yo’qotadi, umumiy til lug’at tarkibidagi so’zlarga esa maxsus (siyosiy) ma’nolar beriladi.

Tilda siyosiy maqsad va manfaatlar, dunyoqarash, his-tuyg’ular o’z aksini topadi. Shuningdek, til har qaysi millatning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotiga mos tarzda rivojlanib boradi. Ya’ni til jamiyat hayotining barcha sohalarida amalda bo’lib, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot strategiyasini belgilashga xizmat qiladi. Zero, til halqning ruhiyati, yashash tarzi mahsulidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har bir millat o’z tilning taraqqiyoti uchun qayg’uradi, rivojlanish asoslarini mustahkamlashga harakat qiladi.³

Bundan tashqari siyosiy tilning o’ziga xos xususiyati uning ko’p o’lchovlilikini ham o’z ichiga oladi, ya’ni, bir vaqtning o’zida turli guruhlariga murojaat qiladi va ularda turli reaksiyalarni uyg’otishga qodir. Biroq, siyosiy tilning ko’p qirraliligi o’z-o’zidan uni hali ommaviy kommunikatsiyalar oqimida jamoatchilik tomonidan qo’llab-quvvatlamaydi.

Har qanday belgining mantiqiy tuzilishi unga mos keladigan ob’ektning mantiqiy tuzilishi bilan rasmiy o’xshashlikni ochib berishini hisobga olsak, siyosiy tilning bir qator rasmiy xususiyatlarini ajratib ko’rsatish mumkin. Bu jamoatchilik tomonidan yuzaga kelgan reaksiyalarga mos keladi. Gap buyruq, ta’rif, isbot va hukm kabi uslubiy elementlar haqida bormoqda. Turli xil kombinatsiyalarda bu elementlar siyosiy boshqaruvda qo’llaniladigan kamida to’rtta aniq ajralib turadigan til uslublarini tashkil qiladi:

1. Murojaat tili katta maqsadli guruhlar tomonidan keng siyosiy qo’llab-quvvatlashga turtki berish zarur bo’lgan vaziyatlarda qo’llaniladi: saylov kampaniyalari, referendumlar, parlament muhokamalari va boshqalar. Bu erda ko’pincha “kapitalizm”, “totalitar tizim”, “ijtimoiy adolat” kabi umumiy atamalar qo’llaniladi.

2. Konstitutsiyalarning huquqiy tili qonunlar va qonun kodekslari, shartnoma, bitim va boshqalar. Albatta bu yerdagi tushunchalar yuridik til sifatida to’la va retseptlardan iborat. Bu esa jamoatchilik uchun ijtimoiy-siyosiy muammolarni shakllantirishda aniq taassurot uyg’otadi.

3. Byurokratik til – ma’muriy qoidalar, buyruqlar, farmonlar va boshqalar tili sifatida huquqiy til bilan ba’zi o’xshashliklarni ochib beradi (aynan retseptlar tili), lekin undan ba’zi muhim rasmiy jihatlari bilan farq qiladi. Shu jumladan, tildan foydalanuvchi nuqtai nazaridan (jamoat tomonidan saylangan hokimiyat organlari emas, balki tayinlangan mansabdor shaxslar), adresat tomonidan (saylovchilar emas, balki mijozlar) qo’llanilishi hamda bu uslubga ommaviy reaksiyalar (hech qanday hamdardlik bo’lmaydi, faqat kamsitish va masxara qilish kabi jihatlar) ham bildirilishi mumkin.

² Marc Deiser “Sprache und Politik“ Grinzens, November 2015, S. 9

³ <https://zamin.uz/uz/jamiyat/78421-til-siyosat-va-zamon.html>

4. Muzokaralar tili ham murojaat tili kabi muayyan siyosiy pozitsiyani qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Ammo bu tillar bir-biridan qo'llanish holati, muloqot qiluvchi tomonlarning tabiati va lingvistik muloqot jarayonida uzatiladigan ma'nolari bilan sezilarli darajada farq qiladi. Muzokaralar ishtirokchilari bir-birlariga murojaatlarni emas, balki biznesni taklif qilishadi.⁴

Til siyosatni xabardor qilish, ko'rsatma berish, ishtirish va singdirish vositalari bilan ta'minlaydi. Albatta, siyosiy muloqot, birinchi navbatda, mazmun bilan bog'liq, lekin alohida kalit so'zlarning ta'siri, murojaat shakllari yoki ba'zi iboralarning noaniqligini e'tiborsiz qoldirmaslik kerak.

Martin Greiffenhagenning fikricha, Germaniya Federativ Respublikasi kabi demokratik davlatlarda siyosat birinchi navbatda "ommaviy bahslar va parlament muhokamasi"ni anglatadi. Bu yerda ham og'zaki til siyosatchilar va umuman qaror qabul qilish jarayoni uchun qanchalik muhimligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababdan ham siyosatchilar allaqachon Yunoniston va Rimda mantiq, ritorika, dialektika kabi sohalarini o'rganishgan.

Armin Burkhardt siyosiy kommunikatsiyani siyosiy tilning funksiyasiga oid dastlabki ko'rsatkichlar bilan tavsiflaydi. Uning ta'kidlashicha, siyosiy til har doim siyosiy nuqtai nazardan kelib chiqadi va shuning uchun hech qachon vakillik uchun sof funktsional emas, balki har doim apellyatsiya va tavsiflovchi-axborotdir. Tilning aniq qo'llanilishi orqali tinglovchiga, o'quvchiga ta'sir qilish jihati siyosat sohasida muhim ahamiyatga ega. Burkhardtning fikricha, siyosiy til asosan ommaga qaratilgan muloqotdir. Bu ta'rif dastlab juda cheklangandek ko'rinadi, lekin partiya dasturlari, saylovoldi tashviqotlari, nutqlari, hukumat bayonotlari, siyosatchilarning chiqishlari, parlament muhokamalari va qonun loyihalari kabi siyosiy matnlarning barcha muhim turlari ushbu cheklovga kiritilgan.⁵ Shu nuqtai nazardan, ushbu ta'rifga ko'ra, qaysi siyosiy nutq aktlarini siyosiy til, deb hisoblamaslik kerakligini ko'rib chiqish muhim. Faqat alohida ishtirokchilar o'rtasidagi maxfiy shartnomalar va kelishuvlar yoki siyosatchilar o'rtasidagi xat va telefon qo'ng'iroqlari, shuningdek, jamoatchilik uchun ochiq bo'lmagan qo'mitalardagi munozaralar, garchi ular tabiiy ravishda sodir bo'lsa ham, siyosiy til sifatida qaralmaydi.

Yozef Klaynning fikricha, siyosiy til odatiy texnik til emas. Uning aralash xarakteri, boshqa tillar bilan bir-biriga mos kelishi va kundalik til bilan keng o'xshashligi uning bu jihatiga zid hisoblanadi.⁶ Valter Diekman ham siyosiy tilni sof til sifatida ko'rmaydi.⁷ Chunki u ko'plab fan sohalarining bir qismi sifatida boshqa soha tillarining lug'atidan foydalanadi, lekin umuman olganda uni ko'proq "differenziatsiyalangan harakat va funktsional kompleks" va chegaralangan predmet sohasi o'z-o'zidan ifodalanmaydi. Biroq, siyosiy til va kundalik til o'rtasida farq bor. Siyosat tilida atamalar o'ziga xos kontekstda bo'ladi va faqat siyosiy kontekstda boshqa mutaxassislik sohalaridan olingan bo'lsa ham o'ziga xos ma'noga ega bo'ladi. Ushbu siyosiy matndan tashqarida ular to'liq emas va ularni to'ldirish kerak.

A. Nosir Shrouf siyosiy tilning turli ilmiy ta'riflarini quyidagi juda keng ta'rifda jamlaydi: "Shunday qilib, ilmiy ishlar to'plami siyosiy tilni davlat tili yoki davlat hokimiyati bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalar: siyosat institutlari, vazifalari va amaliyoti tili sifatida tushunadi".⁸

Muayyan mezonlarga ega bo'lgan batafsil ta'rif sifatida Klaus Watzin quyidagilarni shakllantiradi: "Siyosiy til deganda notiq, yozuvchi davlatning jamoat yoki siyosiy institutlar (parlament, hukumat, ma'muriyat, sud, partiyalar va siyosiy birlashmalar) doirasidagi qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatishga urinishdagi barcha til harakatlari sifatida ta'riflanishi kerak".⁹

⁴ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/politology/268/%D0%AF%D0%B7%D1%8B%D0%BA>

⁵ <https://www.grin.com/document/71264>

⁶ <https://www.grin.com/document/71264>

⁷ <https://www.grin.com/document/71264>

⁸ <https://www.grin.com/document/71264>

⁹ <https://www.grin.com/document/71264>

Keng ma'noda siyosiy til shu tildan kelib chiqqan kishilarning ma'lum bir guruhiga (siyosatchilar, davlat xizmatchilari) bog'langan. Biroq, professional siyosatchilarga cheklov qo'yilgan taqdirda, fuqarolarning tashabbuslari yoki muntazam suhbatlarda ishlatiladigan tilning taqsimlanishini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, tilning harakat matni, masalan, saylov kampaniyalari yoki parlament bahslari kabilarni aniqlash uchun ham muhimdir. Bu tilda (qonunlashtirish, tasdiqlash) va muayyan vositalardan (shiorlar, bo'sh formulalar) foydalanish orqali ham aniq maqsadlarga erishilishi kerak. Biroq, siyosiy tilga qanday o'ziga xos lingvistik xususiyatlar berilishi ilmiy munozarali masala. Xususan, siyosiy til haqida gapirish mumkin bo'lishi uchun o'ziga xos oqibatlarni (qonunchilik, ovoz berish xatti-harakati) keltirib chiqarilishi nazarda tutiladi. Davlatning qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir qilish masalasi bu maqsadga erishish kerak degani emas. Murojaatlar bo'yicha muharririyatda o'qilmagan xat ham ta'sir o'tkazishga urinish va shu bois uni siyosiy til, deb hisoblash kerakligi ta'qidlanadi.¹⁰

Siyosat tili yoki siyosiy til deganda aniq nimani tushunish tilshunoslikda ham aniq belgilanmagan. Shu nuqtai nazardan, siyosiy til deyarli barcha boshqa sohalarda bo'lgani kabi, individual til harakati va tildan foydalanishning umumiy majburiy qoidalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirda harakat qilishini hisobga olish kerak. U har doim aytilgan yoki yoziladigan ijtimoiy doira bilan bog'liq bo'lib qoladi. Mantiqiy xulosa sifatida, ijtimoiy yoki siyosiy o'zgarish bilan til o'zgarishi ham mavjud bo'lib, bu ishda batafsil muhokama qilinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Verena Bock „Sprachvariation im politischen Diskurs“. Wien, 2020.
2. Ulrike Scharinger „Sowjetrussische Lexik in der politischen Sprache der ehemaligen DDR“. Wien, 2009.
3. Peter Haslinger, Nina Janich “Die Sprache der Politik – Politik mit Sprache”. München, 2005.
4. www.wikipedia.org.

¹⁰ <https://www.grin.com/document/71264>